



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



TA’LIM JARAYONIDA INKLYUZIV TA’LIM QO‘LLANISHINING TALABALAR IJODIY VA KASBIY KOMPETENSIYASIGA TA’SIRI

Xudayshukurova Madina Ikrom qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik 1- kurs magistranti

Ilmiy rahbar: G‘oyibnazarov Rahmatilla

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, Pedagogika fanlar
i bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining asosiy maqsadi - har bir shaxsning shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda, uni jamiyat hayotiga faol ishtirok etishga tayyorlashdir. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muxtoj bolalarni me’yorda rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta’lim - tarbiya olishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, uning psixologik-pedagogik mazmuni talabalarning kasbiy, ijodiy rivojlanishiga albatta ta’sir ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, kompetensiya, kasbiy rivojlanish, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, tolerantlik.*

ПРИМЕНЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ТВОРЧЕСКУЮ И ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В условиях глобализации главной целью современной системы образования является подготовка каждого человека к активному участию в общественной жизни с учетом его индивидуальных способностей и возможностей. Инклюзивное образование обеспечивает получение образования и воспитания детьми с особыми потребностями на равных условиях с нормально развивающимися сверстниками, что придает ему особую значимость. Основные принципы инклюзивного образования, его психолого-педагогическое содержание оказывают значительное влияние на профессиональное и творческое развитие студентов.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, компетентность, профессиональное развитие, творческое мышление, педагогический подход, толерантность.*

THE APPLICATION OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND ITS IMPACT ON STUDENTS CREATIVE AND PROFESSIONAL COMPETENCE





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Annotation : *In the context of globalization, the ultimate goal of modern education is to prepare every individual for active participation in social life, taking into account their unique abilities and potential. Inclusive education guarantees that children with special needs receive education and upbringing on an equal basis with typically developing peers. Therefore, it plays a crucial role in achieving educational equity. The core principles of inclusive education, along with its psychological and pedagogical dimensions, significantly influence the professional and creative development of students*

Keywords: *inclusive education, competence, professional development, creative thinking, pedagogical approach, tolerance.*

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi - har bir shaxsning qobiliyatini to'liq ochish, uni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida insonparvarlik, teng imkoniyat va individual yondashuv tamoyillariga asoslangan inklyuziv ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv muhitda ta'lim olgan shaxslar turli ijtimoiy, psixologik va madaniy farqlarga ega insonlar bilan muloqotda bo'lish orqali empatiya, tolerantlik, muloqot madaniyati va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida insonparvar yondashuvni qo'llash, jamoada samarali ishlash, ijodiy fikrlash va yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim oluvchilarga, balki pedagoglarga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi turli individual ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'zining kasbiy refleksiya, psixologik moslashuvchanligi va pedagogik ijodkorligini rivojlantiradi. Shuning uchun inklyuziv ta'lim shunchaki ijtimoiy adolat tamoyili emas, balki zamonaviy ta'lim jarayonining innovatsion, ijodiy va kompetensiyaga asoslangan yondashuvi sifatida qaraladi. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir⁵⁴.

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion -uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga nuxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

⁵⁴F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika" Chirchiq 2022



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Bu tizimning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tenglik va adolat - har bir o'quvchi ta'lim olishda teng huquqlarga ega;
- Individual yondashuv - har bir shaxsning ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olish;
- Hamkorlik - o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida o'zaro ishonchli muloqot o'rnatish;

-Insonparvarlik va bag'rikenglik - farqlarni hurmat qilish va ularni qadrlash. Ushbu tamoyillarni amaliyotga joriy etish o'qituvchidan nafaqat pedagogik bilim, balki kasbiy kompetensiyaning yuqori darajasini ham talab qiladi.

Kasbiy kompetentlik - bu mutaxassisning o'z faoliyat sohasida samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligidir. Hozirgi tezkor rivojlanish davrida mutaxassis – kadr kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda, faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, tanqidiy, tahliliy va kreativ fikrlovchi, innovatsion tafakkurga ega, o'z faoliyatida yangiliklarni amalga oshirishga tayyor mutaxassis kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash masalasi ta'lim jarayonining eng, muhim unsurlaridan biri hisoblanadi.⁵⁵

Inklyuziv yondashuv ta'limning insonparvarlik tamoyillariga tayanadi. Bu esa o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyaning muhim jihatlari - kommunikativ, psixologik-pedagogik, ijtimoiy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishni zarur qiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qiyotgan talabalarda kasbiy kompetensiya - ya'ni o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatni his etish va jamoada ishlash qobiliyatlari rivojlanadi. Masalan, pedagogika yo'nalishidagi talabalar inklyuziv ta'lim jarayonida har xil ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashni o'rganish orqali kelajakda inklyuziv pedagogika tamoyillarini amalda qo'llay olishadi. Bu esa ularning kasbiy mahoratini, moslashuvchanlik darajasini va pedagogik madaniyatini oshiradi.⁵⁶

Inklyuziv ta'lim talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar quyidagi qobiliyatlarni shakllantiradilar:

- Moslashuvchanlik va kommunikativ ma'daniyat ko'nikmasi turli imkoniyatga ega insonlar bilan bir sinfda o'qish, muloqot va hamkorlik qilish va talabani bag'rikeng, moslashuvchan va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi,

- Empatiya va jamoada ishlash ko'nikmasi esa inklyuziv guruhda o'qiyotgan talabalar boshqalarni tushunish, yordam berish, jamoada ishlash va ma'suliyatni bo'lishishida namoyon bo'ladi

⁵⁵ G.O.Ochilova, S.Sh.Akbarova "Kasbiy Kompetentlik" Toshkent 2022

⁵⁶ Azizxo'jayeva N.N.(2021). Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiya asoslari. - Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Pedagogik amaliyotda qo'llanilishi esa pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun inklyuziv muhitda ta'lim olish kelgusida turli ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlash malakasini shakllantiradi. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yana takomillashtiradi

- Innovatsion fikrlash esa har xil qobiliyatli talabalar bilan birga o'qish ularni nostandart vaziyatlarga yechim topishga, ta'lim jarayonida kreativ yondashishga undaydi.⁵⁷

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Inklyuziv ta'lim tizimi zamonaviy ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u har bir shaxsning ta'lim olish huquqini kafolatlaydi hamda barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qiladi. inklyuziv muhitda ta'lim olgan talabalar nafaqat akademik bilim, balki ijtimoiy, kasbiy va ijodiy jihatdan ham tezroq rivojlanadilar. Bunday muhitda talabalar o'zaro hamkorlik, bag'rikenglik, insonparvarlik va mas'uliyatlilik kabi qadriyatlarni amaliy tarzda o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim kasbiy kompetensiyaning asosiy komponentlari muammolarni hal etish, kommunikativlik, jamoada ishlash va kasbiy moslashuvchanlikni shakllantiradi. Ijodiy kompetensiya nuqtayi nazaridan esa, inklyuziv o'quv muhiti talabalarda erkin fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish va kreativ muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi Bunday talabalar ta'lim, madaniyat, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning turli sohalarida ijodiy va samarali faoliyat yuritish salohiyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Chirchiq, 2022.
2. Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent, 2022.
3. G.O.Ochilova, S.Sh.Akbarova. Kasbiy Kompetentlik. Toshkent, 2022
4. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya asoslari* - Toshkent. Fan va texnologiya. 2021.
5. M.Hakimova. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirish davr talabi. 2020.
6. G.O.Ochilova, G.Musaxanova. Pedagogik mahorat. Toshkent, 2016.
7. Umumiy pedagogika. I Qism - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020
8. Usmonboyeva M., To'rayev A., Kreativ pedagogika asoslari. Toshkent, 2016
9. Hakimova M. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. Toshkent - 2020

⁵⁷ Karimova V.M. (2019). *Psixologiya: Kasbiy kompetensiya va shaxs rivoji*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.